



UCHINCHI RENESSANS – MILLAT ORZUSI

Raxmatova Nilufar Mustaqimovna

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Email: raxmatova.1983@bk.ru

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2023 yil

Ma'qullandi: 01-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 06-fevral 2023 yil

KEY WORDS

Uchinchi mustahkam yaratishda xalqimizning jipsligi, birdamligi va fidoiyligi muhim rol o'ynaydi.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: «Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak», -degan edi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: «Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak»¹, -degan edi. Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda xalqimizning jipsligi, birdamligi va fidoiyligi muhim rol o'ynaydi.

“Renessans” lug'aviy fransuzcha “qayta tug'ilish” degan ma'noni anglatadi. Keng ma'noda madaniyatda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman kishilik hayotidagi uzoq muddatli turg'unlikdan so'ng qayta jonlanib, tez taraqqiy etishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar ko'lami yangi sifat bosqichiga chiqishini anglatadi.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyotga va turmush farovonligiga erishgan, degan savolga hech mubolag'asiz aytishimiz mumkinki, eng avvalo, ilm-fan va ta'limga qaratilgan ulkan e'tibor tufaylidir. Shuning uchun ham keyingi yillarda mustaqil O'zbekistonda davlatimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar kabi ta'lim sohasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda, bu borada bir qancha muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilinmoqda. Hukumatimiz jamiyatda keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni asosiy maqsad qilib qo'ydi va bu borada amalga oshiriladigan vazifalarning mazmun – mohiyatini belgilab berdi. Bizning fikrimizcha, yangi O'zbekistonni va Uchinchi Renessansni yaratishda avvalo uning mohiyatini xalqimiz, yoshlarimiz tushunib yetishi lozim.

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir

Bu vazifani amalga oshirishda esa ta'lim tizimining alohida o'рни bor. Xo'sh, Uchinchi Renessans nima?

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho'qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko'rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatimizning shakllanishi, jamiyatda ilmu – fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga katta hissa qo'shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi.

O'zbekiston tarixining birinchi Renessansi – Somoniylar davriga to'g'ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning ilmiy – falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'ldi. Ijtimoiy sohaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyan tartib – tamoyillar asosida qurilishi, shaharu viloyatlarning iqtisodiy – madaniy rivojlanishi, ilmu ma'rifatning markazlashuvi singari muhim jarayonlar o'rta asrlarda yurtimizda davlatchilikning o'ziga xosligini belgilovchi tamoyillardir.

Ikkinchi Renessans – Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri kelib, nafaqat Movarounnahr, balki butun Markaziy Osiyo o'lkalari o'z taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tariladi. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me'morchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallashdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”,² - degan so'zi yangradi.

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy, ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun – mohiyati mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib, “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish” g'oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o'zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Yurtimizda ijtimoiy tafakkur darajasining tobora o'sishi bois, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa jabhalarda mehnat va sohaga yondashuv madaniyati hamda mas'uliyati o'zgardi. Ayniqsa, fan sohasiga qaratilayotgan alohida e'tiborning zamirida chuqur ma'no bor. Fan – bu tafakkur bo'lib, qaysiki, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlab beruvchi ustivor omillardan biridir. Fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy – madaniy soha ham taraqqiy etadi. Fanga bo'lgan e'tibor inson tafakkurini o'stirish va ulg'aytirishga xizmat qiladi. Jamiyat tafakkuri o'ssa, madaniyat va san'at sohasi ham mana shu talablarga hamohang ravishda o'sadi va taraqqiy etadi.

Jahon ilmiy hamjamiyatimizda e'tirof etilishicha, O'zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindar. Darhaqiqat o'rta asrlarda O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy – ma'naviy yutuqlar Yevropadagi ilmu fanga asos bo'ldi. Muhammad al –

² O.Abdullayeva. O'zbekistonda ilk uyg'onish – Uchinchi Renessans. 2020.

Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabu ulug' mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy – falsafiy risolalari dunyoviy bilimlarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o'z zamonasi, balki keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos soldi.

Ilgari Renessans so'zi o'zbek tilida Uyg'onish davri deb ham atalar edi. Ko'rinib turibdiki, Uchinchi Renessans maktablardagi bosh milliy g'oya sifatida qaralishi lozim. Buning uchun har bir o'qituvchi uning mohiyatini avvalo o'zi tushungan holda bolalarga sodda tilda tushuntira olishi kerak. Uchinchi Renessans g'oyasini tushuntirish va ota-onalarga yetkazishda nihoyatda uslubiy to'g'ri yondashish, me'yoridan oshirib yubormaslik talab etiladi. Matematika, informatika va axborot texnologiyalari, biologiya, tarbiya, texnologiya kabi yangi darsliklardagi o'zgarishlar va bu borada maxsus davlat miqyosidagi qarorlarning o'zi amaliy ishlar boshlanganligidan darak beradi. Endi o'qituvchilarni o'zi o'zgarishi kerak. Biz ustozlar Renessans tushunchasini odamlarga aniq tushuntirib berishimiz lozim.

Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat – barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog'i lozim. Xullas, bugungi kunda buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar mavjud. Bizning vazifamiz esa ana shu imkoniyatlardan oqilona foydalanishimizga bog'liq. Mamlakatimizda jamiyatning rivojlanishi va barqaror bo'lishini ta'minlash maqsadida Uchinchi Renessansni yaratishga bel bog'lagan ekanmiz, quyidagi vazifalarni sobitqadamlik bilan bajarish har bir vatanparvarning, jamiyatimizda yashayotgan har bir fuqaroning vatan oldidagi burchi deb o'ylaymiz. Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalqimiz ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil qalbdan istaydi.

INNOVATIVE
ACADEMY